

O'QUVCHILAR MUVAFFAQIYATIDA OTA-ONALARNING ISHTIROKI.

Jo'rayeva Ruxshanabonu To'ychizoda

CHDPU "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi 3-kurs talabasi.

Qodirova Ozoda Hamro qizi

CHDPU "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi 2-kurs talabasi.

Sharipova Lobar Shuhrat qiz

CHDPU "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi 2-kurs talabasi.

Annontatsiya: Ushbu maqolada bolalarning sifatli ta'lim olishida ota onalarning roli va uning ta'siri haqida so'z yuritiladi. Unda ota-onalarning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishi va bolalarni qo'llab-quvvatlashiga oid tahliliy ma'lumotlar yoritiladi. Shuningdek, ota-onalarning ta'limdagi faolligi natijasida bolalarda o'ziga ishonch, yaxshi ta'lim natijalari va rivojlangan ijtimoiy ko'nikmalar shakllanishi haqida ham tahliliy ma'lumotlar beriladi. Undan tashqari o'quvchilarning muvaffaqiyatida ota-onalarning ishtiroki haqida so'z yuritiladi. Ota-onalar farzandining o'qish jarayonida katta ro'l o'ynaydi. O'quvchi o'z ota onasidan motivatsiya olib yursa unda o'qishga nisbatan qoziqishlari oshib boradi.

Kalit so'zlari: muvaffaqiyat, ta'lim, tarbiya, ota-ona, qo'llab quvvatlash, rivojlanish, hamkorlik, so'rovnoma, tadqiqot, tajriba, ishtirok, o'qituvchi, maktab, muassisalar, metodikalar.

Участие родителей в успехе учащихся.

Аннотация: В этой статье рассказывается о роли родителей и ее влиянии на получение детьми качественного образования. В нем освещается аналитическая информация об активном участии родителей в образовательном процессе и

поддержке детей. Также аналитическая информация дается о формировании у детей уверенности в себе, хороших образовательных результатов и развитых социальных навыков в результате воспитательной активности родителей. Далее говорится об участии родителей в успехе учащихся. Родители играют большую роль в процессе обучения своего ребенка. Когда ученик получает мотивацию от своего родителя, его ставки по отношению к учебе возрастают.

Ключевые слова: успех, образование, воспитание, воспитание, поддержка, развитие, сотрудничество, опрос, исследование, опыт, участие, учитель, школа, учреждения, методологии.

Bugungi kunda bolalarning ta'lim olishidagi muvaffaqiyati juda ko'p omillarga bog'liq. Bu omillar ichida ota-onalarning ta'limdagi roli muhim o'rin tutadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ota-onalar o'z farzandlarining ta'lim olishi va rivojlanishida faol ishtirok etganlarida, bolalar ko'proq muvaffaqiyatga erishadilar. Ota-onalarning maktab va boshqa ta'lim muassasalaridagi faol ishtiroki bolalar ta'limiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalar yig'ilishlariga qatnashish, farzandlarining uy vazifalariga yordam berish va ularning ta'lim faoliyatini kuzatish bolalarning muvaffaqiyatini oshiradi. Albatta, bunda ota-onalar hamda ta'lim muassasasining hamkorligi ham muhim ahamiyatga ega. Chunki, ota-onalar va maktab o'rtasidagi hamkorlik bolalarning akademik muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi kunda maktab va ota-onalar faoliyatini muvofiqlashtirish to'g'risida bir qancha normativ hujjatlar ham imzolangan. Xususan, "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" konsepsiyasi asosida o'zaro hamkorlik bo'yicha ishlar tashkil etib boriladi. Ammo bu kabi hamkorlik ishlari juda sust va faqat yig'ilish, hisobot qilish uchun olib borilishiga ko'pchilik odatlanib qoldi.

2012-yil 19-iyun kuni Vazirlar Mahkamasining "Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 175-sonli

qarori qabul qilinib, “Oila-mahalla-ta’lim muassasasi” hamkorlik mexanizmini kuchaytirish bo’yicha chora-tadbirlar belgilandi.

Shuningdek, joriy yilda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan “Ota-ona – murabbiy” kitobi ham nashrdan chiqarilib, uning taqdimoti o’tkazildi. Unda ota-onalar bilan yaqin hamkorlikda ishlash, ularga farzandlar tarbiyasida ko’maklashish, yoshlarni turli buzg’unchi mafkuralardan himoya qilish, bolalarda o’zini o’zi himoya qilish ko’nikmasini shakllantirishga doir muhim tavsiyalar berildi. Lekin bu kabi ishlar faqat nazariya bilan bog’liq bo’lib, amaliyotda uning samarasi sezilmayapti.

Nazariy jihatdan, “Oila-mahalla-ta’lim muassasasi” hamkorlik mexanizmi bolalar ta’limining har tomonlama qo’llab-quvvatlanishini ta’minlashi kerak. Ammo amaliyotda bu hamkorlik yetarlicha ishlamayapti. Chunki, oila, mahalla va ta’lim muassasalari o’rtasidagi muloqot yetarli darajada yo’lga qo’yilmagan. Amaliyotda, bu tashkilotlar bir-biri bilan muntazam aloqada bo’lishlari va hamkorlik qilishlari kerak edi, lekin bu jarayon ko’pincha qog’ozda qolib ketmoqda.

Sababi, oila, mahalla va ta’lim muassasalari o’rtasida muvofiqlashtirilgan amaliy qadamlar yo’q. Shuningdek, ushbu hamkorlik mexanizmining samaradorligini muntazam ravishda kuzatish va baholash tizimi ham mavjud emas. Buning natijasida esa qilinayotgan ishlarning samaradorligini oshirish imkoni bo’lmayapti.

Yuqorida ko’tarilgan muammolarning sababini o’rganish maqsadida “Bolalarning sifatli ta’lim olishida ota-onalarning roli” mavzusida mingdan ortiq pedagog xodim va ota-onalar o’rtasida so’rovnoma o’tkazildi. So’rovnoma natijalariga ko’ra ota-onalarning maktab bilan hamkorligi yaxshi yo’lga qo’yilmaganligi ma’lum bo’ldi. Mazkur so’rovnomada jami 1077 nafar respondentlar ishtirok etib, ularning 753 nafarini (69,9%) pedagoglar, 312 nafarini (29%)ni esa ota-onalar tashkil etdi.

Maktab va ota-onalar o’rtasidagi aloqa ta’lim jarayonining ajralmas qismidir. Ushbu aloqaning sifat darajasi esa o’quvchilar muvaffaqiyati va farovonligiga sezilarli ta’sir ko’rsatishi mumkin. Yaqinda o’tkazilgan mazkur so’rovnoma natijalari ota-

onalar va maktab o'rtasidagi hamkorlik aloqalari haqida qiziqarli ma'lumotlarni ham ochib berdi.

So'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 4,1 foizi ota-onalar maktab bilan umuman aloqa qilmasligini bildirgan. Bu juda kichik raqamlar bo'lsa-da, ammo katta salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

So'rovnomada qatnashganlarning 72,1 foizi ota-onalar faqat zaruriyat tug'ilgandagina maktab bilan aloqa o'rnatishini ma'lum qilgan. Bu ko'rsatkich ota-onalar asosan muhim vaziyatlar yoki muammolar yuzaga kelgandagina maktab bilan bog'lanishini anglatadi. Bunday yondashuv, ba'zida, bolalarning ta'lim jarayoni va muammolarini o'z vaqtida bilish va hal qilishda kechikishlarga olib kelishi mumkin.

Bolalarning sifatli ta'lim olishida ota-onalarning bolalari bilan maktabdagi muvaffaqiyatlarini muhokama qilishi ham muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi yaqin muloqot, muammolarni erta aniqlash va motivatsiyani oshirish ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi. Ota-onalarning faol ishtiroki va ta'limga jiddiy munosabati bolalarning muvaffaqiyatli rivojlanishi va bilim olishga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi. Shu sababli, ota-onalar bolalarning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishlari va ularning muvaffaqiyatlarini muntazam muhokama qilib borishlari zaruriy ehtiyojlardan biridir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ota-onasi deyarli har kuni ular bilan shunchaki suhbatlashib o'tirib vaqt o'tkazadigan, tushlik yoki ovqatni birga qiladigan yoki maktabdagi muvaffaqiyatlarini muhokama qiladigan bolalarda hayotdan qoniqish hissini ko'proq tuyadi. Ya'ni, ota-onalar bilan bo'lgan oddiy muloqot o'quvchilarning hayotdan qoniqish darajasiga kuchliroq ta'sir ko'rsatadi.

Nima uchun bolalar aynan yuqori sinfga o'tganda ota-onalarning ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishi susaymoqda?

O'quvchilarning yuqori sinfda ko'proq fanlar va murakkab mavzular bilan shug'ullanishi ota-onalarga qo'shimcha yuk bo'lishi mumkin. Bunda esa ota-onalar

o‘zlarining bilimlari va resurslari yetarli emasligini hamda pedagogik malakaga ega emasligi sababli murakkab mavzularni tushuntirishda qiyinchilikka duch kelishlari mumkin. Bilimlari yetarli emasligini his qilgan ota-onalar esa tushkunlikka tushishi, bu esa oiladagi umumiy muhitga ham ta’sir ko‘rsatib, sekin-asta ota-onalarning ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqishining susayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Ota-onalarning yuqori sinflardagi o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqishining susayishiga olib keladigan muammolarni bartaraf etish uchun bir qancha yechimlarni taklif qilish mumkin. Eng birinchi navbatda o‘qituvchilar va ota-onalar muntazam ravishda uchrashib, bolalarning ta’lim jarayoni haqida fikr almashishlari kerak. Buning uchun esa zarur choralar ko‘rilishi lozim.

Masalan, ota-onalar bolalarining ta’lim jarayonida faol ishtirok etishlari uchun ish joyida ham qulay sharoit yaratish muhimdir. Ish beruvchilar ota-onalarga moslashuvchan ish vaqti taklif qilishlari, maktabda o‘tkaziladigan turli xil tadbir hamda majlislar vaqtida ish haqi saqlangan holda tanaffuslar berish amaliyotini yo‘lga qo‘yish lozim. Shu bilan birga maktablarda ta’til boshlangan vaqti ota-onalar uchun ish vaqtini qisqartirish yoki ularga qo‘shimcha ta’til berish imkoniyatini yaratish lozim.

Bu orqali ota-onalar bolalarining ta’lim jarayoniga ko‘proq vaqt ajratishlari mumkin bo‘ladi. Shuningdek, ish beruvchilar hamda ota-onalarga tezkor va muhim axborot yetkazish uchun SMS xabarnomalar yuborish amaliyotini yo‘lga qo‘yish, unda ish beruvchi hamda ota-onalarga ota-onalar yig‘ilishi, sinf rahbari bilan uchrashuvlar va boshqa muhim uchrashuvlar haqida xabar berish, maktabda o‘tkaziladigan turli xil tadbirlar, ota-onalar uchun ta’lim va tarbiya bo‘yicha maslahatlar va tavsiyalar yuborishni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

Ota-onalar va ish beruvchilarga yuboriladigan SMS-xabarnomalar bolalarning ta’lim jarayonini yaxshilashda katta rol o‘ynaydi. Uy vazifalari, dars jadvali, tadbirlar va maslahatlar haqida muntazam ma’lumot yetkazish ota-onalarning faolligini oshiradi va bolalarning muvaffaqiyatlarini ta’minlashga yordam beradi. Ota-onalar bolalarining

ta'lim jarayoniga faol ishtirok etishi uchun keng miqyosda targ'ibot ishlarini boshlash, ularning savodxonlik darajasini tadqiq qiluvchi tadqiqotlar o'tkazib borish hamda ota-onalar uchun maxsus treninglar tashkil etish lozim.

Ota-onalarning bolalarining ta'lim jarayoniga faol ishtirok etishi uchun barcha birgalikda harakat qilishlari zarur. Treninglar, seminarlar, qo'llanma va resurslar, muntazam uchrashuvlar, onlayn muloqot platformalari, motivatsiya va rag'batlantirish tadbirlari, ta'lim va tarbiya muhitini yaratish va ish joyida qo'shimcha qo'llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlar ota-onalarning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishlarini ta'minlaydi. Bu orqali bolalarning ta'lim sifati oshadi va ularning muvaffaqiyatli shaxslar bo'lib yetishishlari uchun zamin yaratiladi.

Umuman olganda, bolalarning sifatli ta'lim olishida ota-onalarning roli beqiyosdir. Ularning motivatsiya berish, qo'llab-quvvatlash, mas'uliyatni bo'lishish, ijtimoiy va psixologik yordam ko'rsatish, maktab bilan muloqot qilish, uyda qulay ta'lim muhitini yaratish va ta'limga jiddiy munosabatda bo'lishlari bolalarning ta'lim jarayonida muvaffaqiyat qozonishlariga katta yordam beradi. Ota-onalar va maktab o'rtasidagi samarali hamkorlik esa bolalarning ta'lim sifatini oshirishda eng asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Ota-onalarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki ko'p qirrali bo'lib, u turli shakllarda amalga oshiriladi: uyda ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlash, farzandlarining maktabdagi faoliyati vao'qituvchilar bilan aloqada bo'lish, farzandlari bilim olishi uchun qulay sharoit yaratish va ularnirag'batlantirish. Shu bilan birga, ota-onalar tomonidan ta'limning ahamiyatini tushunish, ta'limning qadriyatlarini shakllantirish hamda farzandlarini ta'lim jarayonida rag'batlantirishularning muvaffaqiyatiga sezilarli ta'sir qiladi. Mazkur maqolada ota-onalarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki o'quvchilarning muvaffaqiyatiga qanday ta'sir qilishi, ota-onalarning qo'llab-quvvatlash shakllari va bu jarayonning natijalari ilmiy nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, ota-onalar va maktab o'rtasidagi samarali hamkorlikning o'quvchilar rivojlanishiga qo'shadigan hissassi tahlil qilinadi. O'quvchilarning muvaffaqiyati

nafaqat ularning bilimlari bilan, balki psixologik va ijtimoiy rivojlanishi bilan ham chambarchas bog'liq bo'lib, ota-onalarning bu jarayondagi ishtirok umumiy natijalarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalarning ta'limdagi ishtirok shakllari Ota-onalar o'z farzandlarining ta'limdagi muvaffaqiyatiga ta'sir ko'rsatishi uchun turli shakllarda ishtirok etishi mumkin.

Ular quyidagi yo'llar orqali farzandlarini qo'llab-quvvatlashlarini mumkin:

1. Uy sharoitida ta'limni qo'llab-quvvatlash Uyda qulay va samarali o'quv muhitini yaratish o'quvchilarning muvaffaqiyatida asosiy rol o'ynaydi. Ota-onalarning dars tayyorlash jarayonida yordam berishi, vaqtni to'g'ri taqsimlashda ko'maklashishi bolalarning mas'uliyatini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalar tomonidan nazorat va yordam bilan ta'minlangan o'quvchilar akademik yutuqlarida ancha barqarorlik ko'rsatadi (Epstein, 2010).

2. Maktab bilan doimiy muloqot

Ota-onalar maktab va o'qituvchilar bilan muntazam aloqada bo'lishi o'quv jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni erta aniqlashga yordam beradi. Maktab bilan yaxshi munosabatlar o'quvchilarga individual yondashuvni oshirish imkonini beradi. Bu esa o'quvchilarga o'zlarini qadrlangan va qabul qilingan his qilishlariga yordam beradi, bu ularning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi.

3. Ijtimoiy-emotsional qo'llab-quvvatlash.

Bolalarning ta'limdagi muvaffaqiyati nafaqat akademik bilimlar bilan, balki ularning emotsional holati bilan ham bog'liqdir. Ota-onalar bolalarning qiyinchiliklarni yengishga o'rgatishlari, ularga o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirishda yordam berishlari muhimdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalar tomonidan berilgan ijtimoiy-emotsional qo'llab-quvvatlash o'quvchilarning sinovlarga bardosh berish qobiliyatini oshiradi (Walker, 2009).

4. O'rnak ko'rsatish va ta'lim qadriyatlarini shakllantirish.

Ota-onalar bolalar uchun asosiy oʻrnakdir. Ularning ta'limga boʻlgan yondashuvi va oʻrnaksifatida namoyon qilgan xatti-harakatlari bolalarda bilim olishga boʻlgan ishtiyoqni oshiradi. Shuningdek, ota-onalar tomonidan ta'limning qadrini koʻrsatish va bolalarga ilmiy qiziqishlarni rivojlantirish boʻyicha berilgan tavsiyalar ularning kelajakdagi ta'limdagi yutuqlariga ta'sir qiladi.

Ota-onalarning ishtiroki natijalari. Ota-onalarning ta'lim jarayonidagi faol ishtiroki oʻquvchilar uchun turli sohalarda sezilarli yutuqlarni ta'minlaydi:

1. Akademik muvaffaqiyat Ota-onalarning oʻquvchilarga dars qilish jarayonida koʻrsatgan yordami va ularni qoʻllab-quvvatlashi oʻquvchilarning oʻzlashtirish darajasini oshiradi. Koʻplab tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, uyda ta'limni qoʻllab-quvvatlaydigan oʻquvchilar maktabda yuqori akademik natijalarga erishadi. Akademik muvaffaqiyat oʻquvchining ta'lim jarayonida bilim va koʻnikmalarni egallashi, ularni amaliyotda qoʻllay bilishi va belgilangan oʻquv standartlariga mos ravishda yuqori natijalarga erishishini anglatadi. Ushbu muvaffaqiyat koʻplab omillarga bogʻliq boʻlib, ular orasida maktab muhiti, oʻqituvchilar mahorati, oʻquvchining shaxsiy qobiliyatlari va albatta ota-onalarning ishtiroki muhim oʻrin tutadi. Akademik muvaffaqiyatning oʻlchovlari nafaqat oʻquv dasturidagi natijalar, ya'ni baholar bilan, balki oʻquvchilarning umumiy rivojlanishiga, masalan, oʻzlashtirish qobiliyati, qiziqishlar, tanqidiy fikrlash va mustaqil oʻrganish koʻnikmalariga ham bogʻliqdir.

Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, akademik muvaffaqiyatga erishgan oʻquvchilar nafaqat maktabda, balki jamiyatdagi turli sohalarda ham oʻz oʻrnini topadi va kelajakda muvaffaqiyatli shaxslar sifatida shakllanadi.

2. Motivatsiya va oʻziga boʻlgan ishonch Ota-onalar tomonidan berilgan motivatsiya va ragʻbat oʻquvchilarni koʻproq harakat qilishga undaydi. Ular ota-onalarning yutuqlarini qadrlashini bilgan holda, yanada yuqori natijalarga erishish uchun harakat qilishadi. Shuningdek, ota-onalar tomonidan maqtoʻv va qoʻllab-

quvvatlash o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi, bu esa ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatning muhim omillaridan biridir.

3. Ijtimoiy va emotsional rivojlanish Ota-onalar tomonidan berilgan ijtimoiy-emotsional yordam bolalarning o'z-o'ziniboshqarish, muammolarni hal qilish va jamoada ishlash kabi ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ota-onalar va maktab o'rtasidagi hamkorlik natijasida bolalarning ta'lim jarayonidagi qiyinchiliklarni osonroq yengib o'tishlari ta'minlanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'quvchilar muvaffaqiyatida ota-onalarning ishtiroki juda muhim omil hisoblanadi. Ularning farzandlariga ko'rsatadigan akademik, ijtimoiy va emotsional yordam bolalarning nafaqat maktabdagi yutuqlarini oshiradi, balki ularning umumiy hayoti muvaffaqiyatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ota-onalar va maktab o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash, bolalarning ta'lim jarayoniga ko'proq jalb etilishini ta'minlash bugungi kun ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Andreas Schleicher, World Class: How to Build a 21st-Century School System.
2. Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-iyundagi "Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 175-son qarori.
3. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023-yil 27-iyundagi 190-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan sinf rahbarlarining lavozim yo'riqnomasi.
4. Ubaydullayeva R., Ata-Mirzayev O., Quronov M. Oila va barkamol avlod tarbiyasi. – Toshkent: "Ijtimoiy fikr", 2012, – B. 114–115.
5. Internet manbalari: www.stat.uz, www.xalqtaliminfo.uz.

6. Epstein, J. L. (2010). *School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools*. Westview Press.
7. Harris, A., & Goodall, J. (2007). *Engaging Parents in Raising Achievement: Do Parents Know They Matter?*. Department for Children, Schools and Families.
8. Walker, J. M. T. (2009). *Parent Involvement and Science Achievement: A Multilevel Analysis of PISA 2006 Data*. International Journal of Science Education.
9. Ganieva, M. (2023). EMPOWERING LOGICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH TIPS TECHNOLOGY. In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 12, pp. 62-63).